



## IBRAT SHE'RIYATIDA MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI

**Allambergenov Hamza Kamalovich,**  
Nukus DPI O'zbek adabiyoti kafedrasida  
dotsenti, PhD. E-mail:  
hamzaallambergenov1@gmail.com

**Normengliyeva Dilnoza Baxtiyor qizi,**  
Nukus DPI o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi  
talabasi. E-mail: dnormengliyeva@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada XX asr boshlarida yashab ijod qilgan shoir Is'hoqxon Ibrat faoliyati, ijodi hamda she'riyatidagi ma'rifatparvarlikka doir qarashlar ilmiy-nazariy tahlillangan, „Tarixi chopxona“, „Madaniyat haqida masnaviy“, „Gazit xususida“, „Tabrik Namangondin“, „Tarixi manzumayi vagon“ she'rlari badiiyati, ularda davr hamda ijodkor fojiasi masalalari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Is'hoqxon Ibrat, she'riyat, ma'rifatparvarlik, g'azal, „Gazeta xususida“, „Tarixi chopxona“, „Tabrik Namangondin“, „Manzuma“, „Tarixi vagon Is'hoqxon Ibratdin“, „Madaniyat haqida masnaviy“.

**Аннотация.** В статье поэт Исхакхан Ибрат, живший и творивший в начале XX века, проводит научно-теоретический анализ взглядов на просветительство в своем творчестве, творчестве и поэзии, стихотворения, в них изучаются проблемы эпохи и трагедия творца.

**Ключевые слова:** Исхакхан Ибрат, лирика, просветительство, газель, «О газете», «История типография», «Поздравление из Намангана», «Преданность», «Исторический повозка Исхакхана Ибратдина», «Маснави о культуре».

**Annotation.** In the article, the poet Ishaqkhan Ibrat, who lived and created in the beginning of the 20th century, has a scientific and theoretical analysis of the views on enlightenment in his work, creativity, and poetry. The artistry of the “Tarihi manzumayi vagon” poems, the problems of the era and the tragedy of the creator are studied in them.

**Key words:** Ishaqkhan Ibrat, lyrics, enlightenment, ghazal, “About the newspaper”, “History of the printing house”, “Congratulations from Namangan”, “Dedication”, “Historical wagon from Ishaqkhan Ibrat”, “Masnavi about culture”.

### KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Adabiyotimiz tarixida jadidchilik davri o'ziga xos o'rin egallaydi. Bu davrda nasrda ham, nazmda ham tub burilishlar bo'ldi. Bundan tashqari, yangi janr – dramaturgiya kurtaklari ham ayni shu davrda vujudga keldi. Jadidchilikning yirik namoyondalari: Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Elbek, Botu, Cho'lpon, Siddiqiy Ajiziy, Qodiriylar qatorida Is'hoqxon Ibrat ham xalqni ilm-ma'rifatli, ziyoli qilmoq yo'lida juda ko'p say'-harakatlar olib bordi. Jadidlar xalqni savodli qilish uchun bor kuchlari bilan harakat qildilar: bepul maktablar ochdi, bu maktablarni o'z hisobidan kerakli jihozlar bilan ta'minladi, boshqa shaharlardan o'qitish uchun mo'ljallangan kitoblar olib keldi, qolaversa, o'zlari ham darsliklar yaratib, bolalarni o'qitdi. Bu bilangina cheklanib qolmasdan, ijtimoiy muammolar va yangiliklar, hukumat vakillarining razilligi, adolatsizligi,



mavjud tuzumdagi illatlarni fosh etuvchi hamda ozodlik, hurlik, erkinlikni tarannum etuvchi o'las, umrboqiy, betakror, durdona asarlar yaratishdi.

Ta'kidlash lozimki, adib ijodi bugungi kungacha to'liq o'rganilgan emas. Hali ochilishi lozim bo'lgan qo'riqlar talaygina. Ayni jihatlarga ko'ra mutafakkir ijodining mavzu ko'lami, go'yaviy-badiiy xususiyatlari, asarlarining xronologik tadqiqi, umuman, mavjud barcha asarlarini chuqurroq o'rganish, hanuzgacha adabiyotimizga ma'lum bo'lmagan asarlarini izlab topish, shoir ijodi namunalari maktabdan tashqari dars mashg'ulotlarida o'rgatish tizimini ishlab chiqish zamonaviy adabiyotshunoslik ilmi oldidagi hal qilinishi lozim bo'lgan muhim masalalardan hisoblanadi.

## **METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI.**

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, bir paytlari qoralangan, asarlari o'qilishi ta'qiqlangan xalq fidoyilarining nomlari oqlanib, asarlari qayta nashr etildi. Ularning ijodiga yangicha nigo bilan qaralib, chuqurroq tahlil qilish boshlandi. Xuddi shu singari, Is'hoqxon Ibrat hayoti va ijodini o'rganish, tadqiq qilish ham mustaqillik yillarida bir daraja o'sdi. Jumladan, bu borada „U.Dolimov, S.Rustamov, T.Malik, Sh.Yusupov, N.Jabborov, D.Ziyoyeva, A.Abdunabiyev, Y.G'offorov, K.Vohidova, M.Sariboyeva kabi olimlar tomonidan o'rganilgan manbalarni ko'rishimiz mumkin. Xususan, M.Abdullayevning „Is'hoqxon Ibrat – serqirra ijod sohibi“, A.So'fizodaning „Istiqlol qahramonlari. Ibrat. Tanlangan asarlar“, „Is'hoqxon Junaydullaxo'ja o'g'li Ibrat. Farg'ona tarixi“, U.Dolimovning „Is'hoqxon to'ra Ibrat“ va „Is'hoqxon Ibrat. Istiqlol fidoyilari“, „Is'hoqxon Ibrat. Tarixi Farg'ona“ [4. 2-3], U.Dolimov, N.Jabborovlarning „Jadid adabiyoti namoyandalari. Is'hoqxon Ibrat“, „Ona yurt fidoyilari. Is'hoqxon to'ra Ibrat. Tanlangan asarlar“, S.Xolbekovning „Is'hoqxon to'ra Ibrat. Islohi millat“, U.Dolimovning „Jadidlar. Is'hoqxon to'ra Ibrat“, K.Vohidovanning „Tarixi madaniyat“ kitoblari, Sh.Miraxmedovanning „Is'hoqxon Ibrat asarlarida ma'naviy-axloqiy qarashlarning o'ziga xos xususiyatlari“, N.Muhiddinovaning „Ibratdaningan ma'rifat“, U.Axrorovanning „Namangan madaniy-ma'rifiy hayotida Is'hoqxon Ibrat maktabining o'rni“, N.Ro'ziyevaning „Is'hoqxon Ibrat shoir va olim, noshir va pedagog, din arbobi va tarjimon“, R.Xolmatov, Z.Ergashovalarning „Matbaai Is'hoqiya tarixidan“, B.Rasulovning „Zamonlar qo'ng'irog'i“ maqolalari yaratildi.

Is'hoqxon Ibrat ijodiy faoliyati bo'yicha bugungi kungacha olib borilgan izlanishlar shulardan iboratdir. Ularning aksariyatida adib hayoti va ijodiy faoliyati haqida so'z yuritilgan bo'lib, ijodi batafsil yoritilmagan. Ibratshunos olim Dolimov va Jabborovlarning tadqiqotlarida ham adibning tarjimayi holi, lirikasi, ijtimoiy-ma'rifiy maqolalari, „Tarixi Farg'ona“ hamda „Mezon uz-zamon“ asari matni



keltirilgan, biroq tahlil etilmagan. Dolimovning „Is’hoqxon to‘ra Ibrat“ asarida yuqoridagi asarlar yuzasidan umumiy fikrlar bayon etilgan xolos.

Bir nechta maqolalarni hisobga olmaganda Ibrat hayoti yoki ijodiy faoliyati tadqiq qilinib, tahlil etilgan biror bir yirik ilmiy ish qilingan emas. Ya’ni mavzu yuzasidan biror monografiya, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar yaratilmagan. Mazkur ish bu kabi masalalarni hal qilish yo‘lidagi birinchi qadamlardandir.

## TADQIQOT NATIJALARI.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, nomlari qoralanib, asarlari o‘qilishi ta’qiqlangan mazkur xalq fidoyilarining nomlari oqlanib, asarlari qayta nashr etildi. Ularning ijodiga yangicha nigoh bilan qaralib, chuqurroq tahlil qilish boshlandi. „Adabiyotshunos Begali Qosimov Abdulla Avloniyning „Tanlangan asarlar“iga yozgan so‘zboshisida shoir ijodini kuzatib, jadid she’riyatiga xos muhim va o‘ziga xos yangilanishlarni keltirib o‘tadi. Bular: vazning yangilanishi; poetik janrlarning yangilanishi; poetik obrazlarning yangilanishi; she’rlarning sarlavhalanishi; an’anaviy „hamd“ va „na’t“lar mazmunining o‘zgarishidir. Ustoz adabiyotshunos tomonidan tasniflangan ushbu xususiyatlar nafaqat, Abdulla Avloniy, balki o‘sha paytda yashab ijod etgan ko‘pgina jadid shoirlari she’riyati uchun xosdir“[5. 2].

Darhaqiqat, bu davr ijodkorlari she’riyatida shakl va mavzu doirasida ham keskin o‘garishlar ro‘y berdi. Asrlar osha she’riyatimizda yetakchilik qilib kelayotgan ilohiy ishq, komil inson, tengsiz yor timsollari bu davrga kelib ijtimoiy tus oldi. Endi shoirlar ijodida ma’rifatparvarlik, xalqni ilm olish, haq-huquqini tanish, xat-savodli bo‘lishga undash, adolatsizliklarga qarshi kurash, erk, ozodlik, istiqloлга da’vat ruhiyati yetakchilik qildi. Shoir Is’hoqxon Ibrat she’riyatida xalq manfaatlarini himoya qiluvchi, demokratik, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini tarannum etuvchi asarlar asosiy o‘rinni egallaydi. Ibrat xalq bilan birga bo‘lishni, xalqqa xizmat qilishni, uning dardiga hamdard bo‘lishni asosiy maqsad deb bildi va bu maqsad shoir she’riyatida o‘z ifodasini topdi. [2. 157]

Ibrat lirikasining barcha qirralarini birgina maqolada ifoda etish biroz mushkul. Shu sababli biz mazkur maqolada Is’hoqxon Ibrat lirikasida ma’rifatparvarlikka undovchi g‘azallarini o‘rganib, fikr-mulohazalarimizni ifodalashga harakat qildik. Zotan, o‘zbek mumtoz adabiyotida keng kuylanib kelgan an’analardan biri ma’rifatparvarlikdir. Chunki ilm-ma’rifat xalqning iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy hayotini yaxshilashda asosiy omil sanaladi. Shuning uchun ham atoqli so‘z san’atkorlari bu hayotbaxsh g‘oyani hamisha kuylab kelganlar.

To‘g‘ri, XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asr boshlari o‘zbek adabiyotida yangicha ma’rifatparvarlik davr taqozosi bilan kuchli harakatchilikka aylandi. Is’hoqxon to‘ra Ibrat ma’rifatparvarligining tub mag‘zi shundaki, uning xoh ilm-ma’rifatga chorlovchi she’rlarida, xoh publitsistik, xoh ilmiy asarlarida, xoh amaliy



faoliyatida bo'lsin, inson taqdiri birinchi o'rinda turdi. U o'z ijodida xalqning iqtisodiy-madaniy hayotiga xizmat qiluvchi ilm-fanni, texnikani kuyladi. Shu nuqtayi nazardan, uning „Tarixi chopxona“, „Madaniyat haqida masnaviy“, „Turkiston xalqig'a xitob“, „Gazit xususida“, „Tabrik Namangondin“, „Tarixi manzumayi vagon“, „Qalam“ kabi she'rlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Shoir ushbu she'rlarida ilg'or fan-texnika, madaniyatning otashin kuychisi sifatida maydonga chiqdi, mamlakatni, xalqni asriy qoloqlikka sudrovchi jaholatparastlikni, mutaassiblikni, shu bilan birga, mustamlaka qonun-qoidalarini keskin fosh etdi. [2. 158]

*Gazetdur jahon ahliga bir lison,  
Muayyan erur anda yaxshi-yu yomon.*

*Gazet ko'rmagan, bexabar xalqlar  
Misli o'lgandur va yo uxlagon. [3. 27]*

deb yozadi „Gazet xususida“ g'azalida. Muallif gazetaning „jahon ahliga bir lison“ ekanligini bayon qilar ekan, undan bexabar kimsalarni „o'lgan“ yoki „uxlagan“ kimsalarga o'xshatadi, ya'ni bunday insonlar jamiyatdagi va jahondagi yangiliklardan boxabar bo'lolmasligini, taraqqiyotdan ham, madaniyatdan ham ortda qolib ketishini tashbih [6. 370] san'ati orqali ifodalaydi. Keyingi misralarda gazeta o'qimaydigan, uni „bid'at“ deb biladigan kimsalardan ranjiydi:

*Dedi bir kishi menga: „Bid'at gazet“,  
Dedim: „Qayda qoldiki, eski zamon?“*

*Ajib so'filar, ajib so'filar,  
Gazet onlarga bid'at, nodurust.*

*Halol o'rniga kehti g'iybat degan,  
Takalluf tamoq rasmi odat ekon.*

*Bular topsa erdiki ilm-u adab,  
Demas erdi bu xil so'zi bo'lmagon. [3. 27]*

So'nggi baytga e'tibor qilsak, shoir insonlarning gazetani yomon, bid'at deyayotganligining asosiy sababi ilmsizlik ekanligini ta'kidlaydi. Gazeta ilm-u ma'rifat ulashishda asosiy vositalardan biri ekanligi, bugungi kunda gazetalar xalq uchun amr-u ma'ruf o'rnidaligini, ya'ni uning insonlarni yaxshilikka chorlovchi, ilmiy-irfoniy asarlarni va ko'plab ijtimoiy xabarlarini yoritishini yozarkan, maqta'da gazetaga xabarlar yozuvchilarni, ijodkorlarni ko'proq yozishga, „Ibrat olib bilmagon“ xalqni „o'qub bil“ishga undaydi. Bu kabi fikrlarini „Tabrik Namangondin“ g'azalida ham ko'rishimiz mumkin. Shoir ushbu g'azalni „Sadoyi Farg'ona“ gazetasining



yaratilganligi bilan qutlab, tabrik o'rnida yozadi. Shuningdek, gazeta noshirlari „Obid-u Mahmud“larga muvaffaqiyat tilaydi. Gazeta xabar yozg'uvchilarning „yaxshi xabar yoz“ishini, bu gazeta „her yerda: masjid-u mayxonada“ birdek o'qilajagini aytib o'tadi. Mazkur misralarda tazod va tanosub [6. 380,414] san'atlarini mohirona qo'llaydi:

*Fuzalo yaxshi fikrlar yozsun,  
Xohishi bo'lsa xalqqa ehsona.*

*O'qur endi gazetni har yerda,  
Xoh masjid-u yoki mayxona.*

*Ilm-u axloq ham fununi maqol  
Lozim o'ldi bu ahd-u paymona. [3. 32]*

G'azal oxirida mazkur ijod namunasining gazeta ochilishiga munosib tabrik ekanligini va go'yoki jonsiz jismga bir ruh bag'ishlagandek bo'lganligini tasvirlashda tazod [6. 380] san'atidan foydalanadi:

*Ziynat uchun muborak javob  
Ayladuk bu „Sadoyi Farg'ona“.*

*Ibrat olsun xalqimiz bundan,  
Kirdi bir ruh jismi bejona. [3. 33]*

Gazeta va jurnallarning ilm, ma'rifat tarqatishdagi o'rnini yaxshi bilgan Is'hoqxon „Manzuma“ asarida ham gazeta xususida bir qancha fikrlar bayon etadi. Ushbu adabiy manba Turkiston hududida nashr etila boshlagan yana bir gazeta „Tujjor“ga tabrik shaklida yozilgan bo'lib, yangi nashrni olqishlash barobarida gazetaning vazifasi, har bir xabarning qanchalar rost va to'g'ri bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritadi:

*Olamda bu jarida bir muxbiri huvaydo,  
Lobad erur yozarg'a gar bo'lsa yaxshi axbor.*

*Bu yangi fikrlardin gar bo'lsa manfaatlik,  
Xalqqa eshittirurga yozmoq kerak bu darkor.*

*Avvalgi asrlarda va'z ila amr-u ma'ruf  
Har yerda aytilardi, emdi jaridalar bor. [3. 34]*

Asar boshdan oxir kalomi jomi'[6. 232] san'ati asosiga qurilgan bo'lib, yuqoridagi baytlarda shoir gazetaning yaxshi, xalq uchun manfaatlik bo'lgan ma'lumotlarni yozib, yangiliklarni yoritib turmog'i lozimligini va avvalgi asrlarda



xalqni to'g'ri yo'lga boshlovchi amr-u ma'ruflar bo'lganligini, bugun esa bu vazifani gazetalar bajarishi kerakligini aytib o'tadi. Adib misralarda tanosub san'atidan o'rinli foydalangan va bu asarning jozibaliligini ta'minlagan. Keyingi baytlarda ham fikrini davom ettirib:

*Millatga yaxshi xizmat aylang yozub, birodar,  
Yozilsa safhalarga o'qur bu xalq nochor.*

*Bu O'rta Oziyoda ikki jarida bori,  
Islom eli o'qurga „Turkiston“ va „Tujjor“.*

*Bu xalq madaniy ermas – bu qo'rquvdur gazetdan,  
Madaniy agar bo'lursa kimdur hazor asfor. [3. 34]*

deb yozadi. Birinchi baytda shoir gazeta muxbiriga „birodar“ deb murojaat qiladi. Chunki Is'hoqxon Ibrat ilm-u irfon taqatishda jonbozlik ko'rsatayotgan, gazeta, jurnallar, o'quv kitoblarni va shu kabi ko'plab adabiyotlarni bosmadan chiqarishga yordam berayotgan, bir so'z bilan aytganda, ma'rifat tarqatayotgan insonlarni o'zi uchun eng yaqin kimsalardan deb bilgan, shuning uchun ham „birodar“ deb atagan bo'lsa ajab emas. Baytda shoir „birodar“iga „millatga yaxshi xizmat“ qilishini, turkiy tilda chiqayotgan ushbu gazetani „nochor xalq“ ham tushunib o'qishini yozarkan, mazkur gazeta O'rta Osiyoda „islom eli“, ya'ni musulmonlar o'qiy oladigan gazetalardan biri ekanligini ta'kidlaydi. „Bu xalq madaniy ermas – bu qo'rquvdur gazetdan“ misrasi orqali shoir gazeta o'qimaslik madaniylik belgisi emas, balki undan, aniqrog'i undagi haqiqatlardan qo'rqish ekanligini ifoda etadi.

Ibrat ijodiy merosining yana bir muhim qirrasini uning badiiy pishiqligida, tasvir vositalarining mahorat bilan qo'llanilganida. Jumladan, misralarda ishtiyoq, takrir, tanosub [7. 18,20,17] san'atlari mohirona qo'llangan. Ushbu „Manzuma“ „Tujjor“ning taraqqiy etmog'i uchun Ibrat tomonidan berilgan yordam (gazetaning ijobiy tomonlari, afzalliklarini baytlarda bir-bir keltirib o'tgan) ekanligini quyidagi misrada keltirib o'tiladi:

*„Tujjor“ga „Taraqqiy“ etmakka bermak imdod,  
Darkor erdi bizdin sarlavha bo'ldi tayyor.*

*Nozimni bilmak istar bo'lsa kishi o'qusun,  
Qozii To'raqo'rg'on Ibratdur anga ash'or. [3. 34]*

Bundan tashqari, Is'hoqxon Ibrat „Matbaayi Is'hoqiya“ nomli bosmaxona ochib u yerda ko'plab asarlarni, xususan, o'zining ham bir qancha asarlarini nashr etadi. Uning bosmaxonasida kitoblar nisbatan arzonroq chop etilar, chunki u oddiy xalq



ham bu kitoblarni olib o‘qishini istar edi. Bosmaxonalar ma’rifat ulashish uchun yo‘l ochuvchi ko‘prik ekanligini bilgan shoir „Tarixi chopxona“ g‘azalida uning ochilgan yili haqida ma’lumot keltiradi:

*Ming uch yuz-u yigirma oltida chopmaxonana  
Ochmoqg‘a bo‘ldi ruxsat va so‘z berib zamona.*

*Maqsad bu ishdan erdi olamg‘a ilm kasri.*

*Ham qo‘ymoqg‘a asarlar yodovari jahona. [3. 30]*

Bosmaxona ochilishiga ruxsat berilgan sanaga e’tibor qaratsak, hijriy 1326-yil – milodiy 1908-yilga to‘g‘ri keladi. Bu paytlar yurtimizda ruslarning boshqaruvi kuchaygan, aholining turmush tarzi yomonlashgan, og‘ir sharoitda yashayotgan bir davr. Shunday vaziyatda Ibratning o‘z hisobidan litografik mashina olib kelib, uyida bosmaxona ochishining o‘ziyoq uning qanchalar xalqning ilmi bo‘lishi uchun jon kuydirgan ma’rifatparvar ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, baytda bosmaxona ochishdan maqsad ham keltirib o‘tiladi.

Shoir keyingi baytlarda o‘tmishda ko‘plab insonlar o‘tganligini, ammo ulardan mingdan birigina tarixga ismini muhrlaganini, o‘z turmush tarzini, zamonasining boy insonlari ahvolini, ularning ilm-ma’rifatga befarq ekanligini, pullarini behuda narsalarga sarflayotganini bayon etarkan, misralarda tazod, ishtiyoq, tanosub [6. 380,377,414] san’atlarini zargarona qo‘llaydi:

*Olamdin ushbu ona sonsiz kishilar o‘tdi,  
Mingdin biri qo‘yubdur olamg‘a bir nishona.*

*Men katta boy emasdim kim aylasam binoye,  
Daxlim yetishmas erdi ro‘zg‘ori choy-u nona.*

*Sad hayfkim, g‘anilar sarfini bilmadilar,  
Yeb-ichdilar semurub, sig‘may turub chopona.*

*O‘z asrimizda o‘tdi bir necha ag‘niyolar,  
Qoldirmayin nishona yer ostin etti xona. [3. 30]*

Shoir ilm-u ma’rifat, madaniyat, maorif bilan birga, zamonaviy texnikalar haqida ham bir qancha she’rlar yaratdi. Bu kabi she’rlarida ham har qanday yangilik, ixtirolarning negizi ilm ekanligini, diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlarni ham chuqur egallash lozimligini, bu kabi texnikalarni bid’at, nomaqbul demasdan ularni hayotga tatbiq qilish va o‘rganish kerakligini ta’kidlaydi. Jumladan, „Tarixi vagon Is’hoqxon Ibratdin“ muxammasida quyidagi misralarni keltiradi:

*O‘qingiz, ilmi hikmat sizga, bu ish katta Ibratdur,*



*Agar ilm o'rganursiz barcha ishda sizga nusratdur.  
Agar ilm o'lmasa, nodon umri barcha kulfatdur,  
Bu ashyoyi jadidi mubaddini asli hikmatdur,  
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi. [3. 40]*

Adib muxammasda takrir, ishtiyoq, tanosub [7. 20,18,17] san'atlaridan ustalik bilan foydalangan. Shuningdek, muxammasda Namanganga vagon kelishini ko'tarinki kayfiyat, quvonch bilan ta'riflaydi. „Namangan ila Xo'qand o'rtasi garchan yaqin“ yo'l ekanligi, ammo Qo'qonga bormoqchi bo'lgan odam ming mashaqqat chekib „qum birla ochug' suv ila to'lgan ko'l“lardan o'tub borishini, temiryo'lning „Ming uch yuz yigirma sakkiz“inchi (milodiy 1910-yil) yilda qurilgani haqida ma'lumot keltiradi. Bu temiryo'l „hurmatli Yessin“ tashabbusi bilan Namangangacha keltirilgani haqida yozar ekan, Yessinni „O'qur erkan handasa ilmini ko'pdin alifbosin“ deya ta'riflaydi. Bu bilan shoir ilm o'rganmoqning, o'qimoqning afzalligini, ilmi insonning xalqiga foydasi ko'proq tegishini, agar bugungi yoshlar ilm olishga zo'r g'ayrat solsalar, ular ham odamlarning og'irini yengil qiluvchi zamonaviy texnikalar, jamiyatning u yoki bu sohasida ishlatiladigan ixtirolar qilishi mumkinligini uqtirmoqda. Mazkur bandda shoir o'qish, ilm o'rganishni insonning „nusrat“i, ilmsizlik, nodonlikni esa umrning „kulfat“i sifatida talqin qiladi.

Shoir yuqoridagi fikrlarning mantiqiy davomi tarzida „Madaniyat haqida masnaviy“ asarida shunday yozadi:

*Safar aylarga ko'b temiryo'llar,  
Ham havo foyzin alar qo'llar.*

*Hama uylarda tilifun bo'lur,  
Pechka issiq, sovuq so'lum bo'lur.*

*Yozda uyda sovuq pech ila shamol,  
Barcha iliktr ila o'tgay hol.*

*Sandal-u samovar iliktriydur,  
Lampa yorug'lari ani(ng) yeridur.*

*Simsiz tiligrom, temirsiz yo'l,  
Avtomobellar yurar mashg'ul. [3. 46]*

Sarlavhasidan ham ma'lumki, she'rdagi madaniyat, ya'ni madaniy hayot haqida so'z boradi. Dastlabki baytlarda shoir jahonda ko'p mashaqqat ko'rganligi, endi rohat ko'rmoq vaqti kelganligi; madaniyat hukm surgan shaharlar misli jannatligi, madaniyat rivojlangan joyda xalq rohatda yashashi, „hech kimsa mashaqqat“





ko'rmasligini aytib o'tadi. Shundan so'ng tazod [6. 380] she'riy san'ati asosida „madaniylar“ va „badaviylar“, ularning xislatlari haqida so'z yuritadi. Madaniy shaharlar deya o'n ikki shahar nomini keltiradi. Va madaniyati yuksak, iqisodiy-ijtimoiy hayoti taraqqiy topgan mamlakatlarning turmush tarziga yengillik olib kirayotgan zamonaviy ashyolar: telefon, ventilyator, elektr pech, lampochka, „simsiz telegram“lar hamda ularning qulayligi, afzalliklariga to'xtaladi. Mazkur baytlar orqali zamonasi uchun yangi bo'lgan bu kabi texnikalarning borligi va ulardan foydalanish madaniy rivojlangan davlatlarning yutug'i ekanligi, ilm-fanning naqadar kuchayayotgani, o'z zamonasi insonlarining ham bu kabi yangiliklarni hayotiga olib kirishlari, xalqning madaniy davlatlar darajaga yetmog'i uchun yoshlarni o'qitish, ma'rifatli qilish, bu kabi ixtirolar bilan tanishtirish kerakligini ko'rsatib bermoqchi. Ilm-u ma'rifatli, xat-savodli, iqtisodi yuqori mamlakatlarda har bir sohaning rivojlanayotgani, ilm talab qilguvchilarning ko'pligi, hattoki ayollarning ham ishlashi va o'qishi mumkinligi masnaviy so'ngida keltirib o'tiladi. Shoir ushbu masnaviy orqali oddiy a'vom ongida zamonaviy texnikalar haqida tasavvur uyg'otish hamda madaniy rivojlangan davlat barpo qilish uchun barcha birgalikda harakat qilishi lozimligini uqtiradi. Is'hoqxon Ibratning bu kabi qarashlari faqatgina lirika namunalari emas, nasriy asarlari, publitsistik maqolalarida ham keltiriladi.

## **XULOSALAR.**

„Adabiyotimizdagi barcha davrlarda bo'lgani kabi jadidlar yashagan, faoliyat ko'rsatgan davrlarda ham ma'rifatparvalik g'oyasi, xalqni ilmga chorlash bosh mezonlardan biri bo'ldi. Adabiyotshunos olimi N.Afoqova aytganidek: „Jadid adabiyoti – an'ana va yangilik kesishgan chorrahada maydonga kelgan adabiyotdir... Ammo eskilik va yangilik aynan jadid adiblari ijodida – she'riyatda ro'baro' keldi“. [5. 2] Darhaqiqat, mumtoz adabiyotimizda keng qo'llangan „yor“, „oshiq“ obrazlari endilikda yangi ma'no ifodalay boshladi. Yor vasliga yetish deyilganda Olloh jamolini ko'rish, unga yetish nazarda tutilgan bo'lsa, bu davrga kelib istiqloлга, hurriyatga erishish ko'zda tutildi. Mustaqillikka erishishning birdan bir yo'li esa o'qish, ilm olish ekanligini yaxshi bilgan jadid namoyandalarning barchasi ma'rifatparvarlik ruhida, ya'ni yangi maktablar, teatrlar ochish, gazeta va jurnallar nashr etish, bolalarni yangi usul maktablarida o'qitish haqida ko'plab she'rlar yaratdi va ularni muttasil gazeta, jurnallarda nashr ettirdi. Xuddi shu singari, Is'hoqxon Ibrat ham lirik, publitsistik, nasriy asarlarida ma'rifatni keng targ'ib etdi. Yuqorida ko'rib chiqqan g'azallarimizda gazeta, zamonaviy texnikalar, chopxonalarni ta'riflash asnosida xalqni ilmi bo'lishga undash, zamonga teran ko'z bilan qarash, yangiliklardan boxabar bo'lishga dav'at etdi. Zotan mazkur davrda har qanday janrdagi asarlarning tag zamirida ilm-u ma'rifat g'oyasi ustunlik qiladi.



Bundan tashqari, shoir ijodining boshqa mavzudagi she'rlarida ham ma'rifatga undovchi, uni targ'ib qiluvchi o'rinlar uchraydi. Adib lirikasining boshqa ijodkorlar lirikasidan farqi ham unda zamonaviy texnikalar: traktor, telefon, temir yo'l, lampochka va hakoza, gazeta va jurnallar, bosmaxonalar haqida; davrning kamchilik va illatlari to'g'risida juda sodda, ravon bayon qilinibdir.

To'g'ri, uning she'riyatida ramziylik va majoz kam uchraydi. Ammo, tili og'ir, o'qilishi va tushunilishi murakkab emas, shu bilan birga, pand-nasihati ruhi, odamlarga yaxshilik, ezgu hayot tilagi, ma'rifatparvarlik va insoniylik mavzulari ustunlik qiladi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Is'hoqxon Ibrat haqida bildirgan fikrlari bilan aytganda „Ibrat domlaning el-yurt taraqqiyoti yo'lidagi fidokorona xizmatlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham barchamiz uchun haqiqiy ibrat namunasi bo'lib qolmoqda“ [1].

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil Namangan viloyatiga tashrifidagi nutqidan. <https://president.uz/oz/lists/view/756>
2. Dolimov U. Is'hoqxon to'ra Ibrat. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
3. Jabborov N. Is'hoqxon Ibrat. – Toshkent: Zabarjad media, 2022.
4. Nusratullayeva. Sh. M. Is'hoqxon Ibrat asarlarida ma'naviy-axloqiy qarashlarning o'ziga xos xususiyatlari. Academic research in educational sciences, 2021. – B. 2-3.
5. Yoqubova S. Jadid she'riyatida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar tasviri. O'zbekiston: til va madaniyat 2(2), 2022.
6. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
7. Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2001.